

BIRINCHI TUG'ISHDAGI GOLSHTIN ZOTLI SIGIDLARNI PARVARISHLASH VA SAQLASH

Xoljigitov Asqar Marifjonovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali*

Annotatsiyasi. Sog'in sigirlar ushbu binolar ichida sog'ishga tayyorlash, sog'ish va ozuqlar bilan oziqlantirish jarayonida saqlanib, so'ng yayratish va oziqlantirish maydonlarida boshvoqsiz erkin saqlash ularni mahsuldorligiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Аннотация. Дойные коровы содержатся в этих помещениях во время подготовки к доению, доения и кормления, а затем на свободном выгуле в местах размножения и кормления, что хорошо сказывается на их продуктивности.

Annotation. Dairy cows are kept in these premises during preparation for milking, milking and feeding, and then free-range in breeding and feeding areas, which has a good effect on their productivity.

Kalit so'zlar: sog'in sigir, yelin, sog'ish, sug'orish, go'ng tozlash, arzon sut va yayratish maydoni.

Kirish. Fan va ta'lim yutuqlari va ilg'or tajribalardan ma'lumki, sut ishlab chiqarish texnologiyasi zootexnikaviy tadbirlar majmuasi bo'lib, u sigirlarni oziqlantirish, saqlash va parvarishlashni hamda sog'ishni o'z ichiga oladi. Hozirgi kundagi har bir chorvachilik fermer xo'jaliklarida uning mahsulot ishlab chiqarishiga ixtisoslashganligi, ozuqa zahiralari, oziqlantirish, saqlash va parvarishlash texnika vositalari bilan jihozlanganligi, chorvadorlar malakasiga qarab sut ishlab chiqarishning zomonaviy texnologiyalari tanlab olinadi. Birinchi tug'ishdagi sigirlar sersut qilinib, ularning sermahsul qismi sigirlar podasini ta'mirlashga tanlab olinadi. Birinchi tug'ishdagi sigirlarni parvarishlash va foydalanishda oziqlantirish, sug'orish, go'ngni

tozalash, ozuqalarga ishlov berib tarqatish va ayniqsa sog‘ishni mexanizatsiyalash ko‘p miqdordagi sifatli va arzon sut ishlab chiqarishda asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun birinchi tuqqan sigirlarni parvarishlash, saqlash va oziqlantirishga zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda o‘rgandik hamda tadqiqot ishlarini olib bordik. Sigirlarning sut mahsuldorligi irsiy belgilanib, tashqi muhit omillari ta’sirida ruyobga chiqadi. Sigirlarni to‘yimli ozuqalar bilan oziqlantirish, saqlash va parvarishlash usullari va texnikalarini to‘g‘ri qo‘llash sut mahsuldorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘in sigirlar podasini va ayniqsa uning nasl yadrosini ta’mirlashda birinchi tuqqan sigirlarni sersut qilish muhum ahamiyatga egadir. Birinchi tuqqan sigirlar sog‘ishning 10 kunidan boshlab saqlash, sut ishlab chiqarish texnologiyasining muhim bir jarayoni bo‘lib, ishning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Saqlash usulidan foydalangan holda sigirlarni maxsus turar joylariga joylashtirish, parvarishlash va ishlab chiqarish jarayonlarini qulay tashkil etish va mexanizatsiyalashlar e’tiborga olinadi. Bunday texnologik omillarni ishga solgan holda tajribadagi yangi tuqqan sigirlar fermer xo‘jalikning kopital qurilgan va zamonaviy mexanizatsiyalashtirilgan birinchi tuqqan sigirlar xonasiga joylashtirildi. Sog‘in sigirlar inividual turar joylarida bog‘lab saqlandi. Turar joyining maydoni oxiri bilan birgalikda $2,5 \times 1,0$ metrni yoki $2,5 \text{ m}^2$ ni tashkil etdi. Turar joyi va oxirlari beton materialidan qurilgan bo‘lib, turush, yotish va oziqlanish imkoniyatlari yaratilgan. Sigirlarni sug‘orish uchun individual sug‘orgichlar o‘rnatalgan go‘ngdan tozalash jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan. Qish davrining iliq kunlarida ham ushbu tajribada saqlash qo‘llanildi. Soviq kunlarda va kechqurunlari binolar ichida saqlanib oziqlantirildi. Ochiq maydondagi oziqlantirish beton oxirlari kengligi 3 metr va balandligi 4 metr bo‘lgan ayvonlar tagida joylashtirilgan bo‘lib, oziqlantirish joylarining poli beton qurilish materiali bilan qoplangan. Oziqalar va oziqlanayotgan sigirlar quyosh radiatsiyasi va havo namligi va yog‘ingarchiligidan saqlanadi. Ochiq yayratish maydoni har bir sigir hisobiga 12 m^2 dan tashkil etilgan.

Birinchi tuqqan sigirlarni ochiq maydonda boshvoqsiz saqlash sharoiti

Sog‘in sigirlar laktatsiyasining birinchi 90 kunligida sutkasiga 2 marotaba (ertalab soat 6⁰⁰ va kechda soat 18⁰⁰ da) sog‘ildi. Sut ishlab chiqarish jarayonlari tezlashtirildi.



Yoz kunlarining jazirama issiq davrida mollar kunduz kunlari shamollashtirilgan binolar ichida o‘z individual joylarida bog‘lab saqlandi. Bu saqlash tadbirlari sigirlar tabiatiga qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratdi. Yoz oylarining o‘ta issiq va qish oylari sovuqning salbiy ta’siridan saqlandi.

Birinchi tug‘ishdagи sog‘in sigirlarni saqlash binosi to‘rt qatorli bo‘lib, 100 ta sog‘in sigirlarni saqlashga mo‘ljallangan. Oziqlantirish jarayonlari mobil ozuqa tarqatgich vositalari yordamida bajarildi. Sigirlarni sug‘orishda har ikkita sigirga bittadan PA-1 rumumli avtosug‘orgich sigirlarni saqlash joyining oxirlarini yoniga o‘rnatilgan. Sigirxonadan go‘nnalar maxsus kanalchalar orqali TSN-30 rusumli kurakli traspartyorlar yordamida chiqarildi. Ushbu mexanizatsiyalash jarayonlari ish unimdonligini oshirdi va sarflanadigan mehnatni qulaylashtirdi.

Yoz oylarida sigirxona ichida harorat va namlikni me’yorda saqlab turush uchun binoning ikki tomonidagi darvozalari ochib, tabiiy ventelyatsiya (shamollatish) tadbirlari qo‘llanilgan bo‘lsa, qishning sovuq kunlari va tunda sigirxona deraza va oynalari yopilib, binoning iliq haroratini saqlashga erishildi. Sog‘in sigirlarni yayratish maydonlari sigirxonadan 100 metr masofada alohida tashkil etilgan bo‘lib, unda dag‘al va shirali ozuqlar bilan oziqlantirish mobel transport vositasi yordamida bajarildi. Maydonlar go‘nglardan to‘planishiga qarab, bir oyda 2-3 marotaba traktor buldozerlari yordamida tozalandi. Yayratish maydonchalarida sigirlarni sug‘orish suv oxirlarida amalga oshirilib,

har doim yangi, toza suv bilan ta'minlandi. Yuqorida keltirilgan saqlash va parvarishlash texnologik sharoitlar sigirlarning fizologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, sersut qilish imkoniyatlarini amalga oshirdi.

Birinchi tuqqan sigirlarni saqlash. G'unajinlarni tug'ishga tayyorlash samaradorligi birinchi tug'ishdagi sigirlarni to'g'ri iydirishni tashkil qilishga bog'liqdir. Yosh sigirlarning yelini hali o'sishda davom etishi iydirish natijasida sut mahsuldorligini ko'paytirish imkoniyatlarini yaratib beradi. Shuning uchun har bir birinchi tuqqan sigirni nazorat sigirxonalarida 90-100 kun ichida iydirish natijasida uning sut mahsuldorligi va foydalanish imkoniyatlari haqida ishonchli ma'lumotlar olish mumkin. Shundan keyin bu sigirning sifati va asosiy podaga ko'chirish haqida fikr yuritish mumkin. Tug'ishdan oldin maxsus tayyorlangan birinchi tug'im sigirlar yelinning morfologik va fiziologik ko'rsatkichlari ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bunday sigirlarga qo'shimcha ozuqalar berish (avans ozuqalar) va iydirishning boshqa muolajalarini (yelinini uqalash matsion, qolgan sutni sog'ib olish va hokazolar) o'tkazish sigirlar sut maxsuldorligini 15-20% ko'paytirish imkoniyatini berishi ko'pchilik olimlar va ilg'orlar tomonidan tan olingan.

Ushbu muammoning ba'zi tomonnlarini ochib berish uchun Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani "Jamel ota" naslchilik fermer xo'jaligida birinchi tuqqan sigirlarni iydirib sutini ko'paytirishni tashkil qilish bo'yicha tajribalar o'tkazdik. Tajribalarda sigirlarga qo'shimcha ozuqalar berish, sigirlarni sog'ishga tayyorlash va sog'ish usullarning iydirish natijalariga ta'siri o'r ganildi. Birinchi tuqqan sog'in sigirlar nazorat sigirxonalarida eng tajribali sog'uvchilarga biriktirildi. Bir sog'uvchiga qo'l bilan soqqanda 15-20, mashina bilan soqqanda 30-35 bosh sigir biriktirilishi mumkin. Sog'in sigirlar bizning sharoitda asosan bog'lab asralgani ma'qul. Har bosh sigir uchun sigirxonadan 1.2×2 joy ajratiladi. Oxur kengligi 1.2metr bo'lishi kerak, ikkita sigirga 1 dona avtosug'orgich o'rnatiladi. Sigirxonadan go'nglar TSN-3B transportyorlari yordamida chiqariladi. TSN-1 markali chuqur ariqlarda yuradigan transportyorlar bizning sharoitga yaxshi javob bermaydi. Sut sog'ishni 2 va 3 taktli sog'ish apparatlarida o'tkazsa bo'ladi, lekin bizning tajribalar O'zbekiston sharoitida 3 takli sog'ish agregatlari

ustunligini ko'rsatdi. Sigirlar yayrash maydonchalar bilan ta'minlanishi shart. Bir bosh sigirga $15m^2$ maydon ajratilib, maydonning bir qismi ayvon qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayvon tagi qattiq jismlar bilan qoplanishi zarur. Maydonchada sog'in sigirlarini oziqlantirish qo'ra uzunligi bo'ylab beton ohurlar qo'yilib har bir sigirga 1.2metr masofa ajratildi. Sug'orish umumiy suv oxurlaridan yoki avtosug'orgichlardan amalga oshirilishi mumkin. Maydonchadagi go'nglar g'ildirakli surgichlar yordamida qo'rada chiqarildi.

Bizning tajribalarning birinchi guruhida sigirlar yayrash maydonchalarida yaratildi. Ikkinci guruxida esa yayrash maydonchalaridan tashqarida kuniga 3-4 kmga faol majburiy yurg'izildi. Uchinchi gurux sigirlari esa yayrash maydonchalar, faol xarakatdan tashqari ferma oldidagi yaylovlarda o'tlatiladi. Ushbu guruhlarda sigirlarning umumiy holati bir-biridan farq qilib, ikkinchi va uchinchi gurux sigirlarida ijobjiy o'zgarishlarga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, II va III gurux sigirlarning sut mahsuldorligi ancha yuqori bo'ldi. Ikkinci gurux sigirlarini maxsus fermada qurilgan haydash yo'laklarida, yoki ochiq maydonchalarida faol haydab o'tkazish shart. (piyoda yoki ot bilan). Sog'in sigirlar ratsioni ularning tirik og'irligi, sut mahsuldorligi, sutdagi yog' miqdoriga qarab xo'jalikdagi borliq ozuqalardan tuzildi. Ratsionda iloji boricha ko'proq ko'rsatkichlarni hisobga olish kerak, xo'jaliklarda xozircha 22 ko'rsatkich inobatga olinishi mumkin. Sog'in sigirlarni oziqlantirish molxona ichkarisida va tashqarisida amalga oshirildi. Tashqari oxurlarda hamma sigirlar uchun bir xil ozuqa tarqatilib, ichkarida ozuqa tarqatish albatta mahsuldorlikni hisobga olingan holda amalga oshirilishi shart. Buning uchun sigirlar sut maxsuldorligiga qarab bog'lanib, ozuqalarning bir qismi qo'l bilan tarqatilsa bo'ladi. Bir sutka davomida sigirlarga 3-4 marta ozuqa tarqatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ko'p marta ozuqa tarqatish xarakat nuqtai nazaridan o'zini iqtisodiy jihatdan oqlamaydi. Sigirlarni ozuqa hisobiga iydirish uchun sigirlar nazorat sigirxonasiga berilgandan keyin uning xaqiqiy sut maxsuldorligi nazorat sog'im o'tkazib aniqlanadi. Shundan keyin berilayotgan ratsionga loyiq sut olinayotgan sigirlar belgilanib, ularga qarz (avans) ozuqa beriladi. Dastlab 2 ozuqa birligi berilishi mumkin (to'yimliligi bo'yicha 50 % omixta yem, 50 % ko'k massa bo'lsa bo'ladi.). 4-5 kundan

keyin sigir suti nazorat o‘lchamdan o‘tkaziladi. Qo‘srimcha ozuqa yegandan so‘ng suti ko‘paysa, yana qo‘srimcha ozuqa beriladi. Bu xol sigir qo‘srimcha ozuqaga sut bilan javob bermaguncha davom ettiriladi. Shundan keyin sigirni imkoniyati sut maxsuldarligi belgilanib asosiy podaga beriladi. Shu yo‘sinda har bir birinchi tug‘ishdagi sigir iydirishdan o‘tishi shart. Iydirish davrida sigirlar yelini sog‘ishga aloxida tayyorlanadi. Buning uchun sigirlar yelini iliq suv ($36-38^{\circ}\text{S}$) bilan yuvilib, quruq sochiq bilan artiladi. Sog‘ish boshlanishidan oldin sigir yelini yaxshilab uqlananadi. Uqlash gorizontal yo‘nalishda va tepaga qarab o‘tkaziladi. Oldin ikki qo‘l bilan o‘ng oldingi va keyingi bo‘lmalar, keyin esa chap oldingi va keyingi bo‘lmalar uqlananadi.

Ikkinchi usul: har bir bo‘lmani alohida uqlash mumkin.

Bundan tashqari yelin so‘rg‘ichlari yengilgina uqlananadi. Birinchi sut oqimi alohida idishga sog‘ib olinadi va umumiy sutga qo‘silmaydi. Shundan so‘ng yelin so‘rg‘ichlariga sog‘ish apparatining stakanlari kiydiriladi. Tayyorlov davri 1 minut bo‘lishi kerak. Sog‘ish 4-5 minut davom etib, sut kelishi ko‘rish oynasidan qaraganda to‘xtashi bilan, yelin oxirgi marta uqlananadi, buning uchun o‘ng qo‘l bilan yelin bo‘lmalar uqlananib, chap qo‘l bilan kollektor ushlanib, bir necha bor pastga tortiladi, natijada qoldiq sut sog‘ib olinadi. Qo‘l bilan sog‘ilganda esa qoldiq sut ($300-500\text{g}$) sog‘ib olinadi. Sog‘im tugagandan keyin sigir yeliniga turli moylar surtib qo‘yiladi.

Sigirlarni Respublikamiz sharoitida asosan 3 taktli sog‘ish apparatlari bilan sog‘ish maqsadga muvofiqli. Bu apparatlar mahsuldarligi kamroq va har xil sigirlar uchun qo‘llanilishi mumkin.

Sog‘ish agregatlarining yaxshi ishlashi uchun vaakum quvurida ko‘rsatkich (vaakummetr) $350-400\text{mm}$ simob yoki $38-44 \text{ k Pa}$ teng bo‘lib, har daqiqada sog‘ish stakanining ichida qisilib bo‘shashishi $50-60$ marta bo‘lishi kerak.

Birinchi tuqqan sigirlar laktatsiyada 4000 gacha sut bergenida 2 marta sog‘ish samaradorlidir, chunki bunday sigirlari sog‘ish martasini oshirish iqtisodiy jixatdan o‘zini oqlamaydi.

Xulosa. Sut-tovar fermalarida xo‘jalik imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli ish tartiblarini joriy qilish mumkin. Hozir ma’quli ikki smenalik ish kuni yoki navbatma-navbat ishslash. Bir haftada sog‘uvchining umumiyligi ish soati 48 soatdan oshmasligi kerak.

Bir sog‘uvchiga sigirlar sut mahsuldorligiga qarab qo‘l bilan sog‘ilganda 20-25 bosh, sut sog‘ish apparati bilan sog‘ilganda esa 35-40 bosh sigir biriktirilsa, mehnat unum dorligi oshib, yetarli iqtisodiy samara olish mumkin. Shunday qilib, har bir xo‘jalikda sut-tovar fermalari ishini tashkil qilishda sutni ko‘paytirish va yog‘lilagini oshirishda birinchi tug‘ishdagi sigirlarni iyadirish asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-308-sonli Qarori, Tashkent, 2006, 23 mart

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-842-sonli qarori. Toshkent, 2008, 21 aprel.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».gi PQ-2460-sonli Qarori. Tashkent, 2015, 29-dekabr’.

4. Akmalxonov Sh.A., Ashirov M.E. Qoramolchilikda naslchilik ishining vazifalari. J. «Zooveterinariya», № 10, 2009, 35-37 b.

5. Anzorov V., Goncharova Ye., Chomaev A. Svyaz faktorov vneshey sredy s vospriyvadatelnoy funkciey korov. J. «Molochnoe i myasnoe skotovodstvo», № 8, 2004, s. 27.

6. Amerxanov X. Plemennaya baza molochnogo i myasnogo skotovodstva Rossiyskoy Federatsii i perspektivы yego razvitiya. J. «Molochnoe i myasnoe skotovodstvo», № 8, 2010, s. 2-5.